

## SO‘ZLASHUV USLUBI. IBORALARNI TARJIMA QILISHDA YUZAGA KELADIGAN GRAMMATIK VA LEKSIK FARQLAR

**Alimov Hasan Xamid o‘g‘li**

E-mail: [alimovhasan08@gmail.com](mailto:alimovhasan08@gmail.com)

O‘zDJTU, Filologiya: ingliz tili

1-kurs talabasi

**Qodirova Munisa Erkinjon qizi**

Ilmiy rahbar:

O‘Zdjtu

### ANNOTATSIYA

Maqolada so‘zlashuv uslubi va ingliz tilidagi iboralarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan grammatik va leksik farqlar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** So‘zlashuv uslubi, ibora, tarjima, grammatik, leksik, farq.

### ABSTRACT

This article is devoted to colloquial style and focuses to grammatical and lexical differences that arise in the process of translating English phrases into Uzbek.

**Keywords:** Colloquial style, phrase, translation, grammatical, lexical, difference.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar haqida so‘z yuritishdan oldin “So‘zlashuv uslubi nima?” degan savolga javob berish o‘rinli bo‘ladi:

So‘zlashuv uslubi- bu uslubning adabiy til me’yorlariga rioxaya qiladigan ko‘rinishi. Adabiy so‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialogik nutq deyiladi. So‘zlashuv uslubida ko‘pincha turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin. So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi, piching, qochiriqlar, iboralar, kinoyalar ko‘plab ishlatiladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalilanildi.<sup>106</sup>

So‘zlashuv uslubi ikki turga bo‘linadi:<sup>107</sup>

1. Oddiy so‘zlashuv uslubi - xalq orasida keng ishlatiladigan so‘zlashuv uslubi. Unda so‘zlovchi o‘z nutqi davomida grammatik shaklga rioxaya qilmaslik huquqiga va talaffuz erkinligiga ega bo‘ladi. Oddiy so‘zlashuv uslubida obraxli va frazeologik ifodalar, maqollardan keng foydalilanildi.

<sup>106</sup> <https://fayllar.org/ozbek-tili-ozbekiston-respublikasi-davlat-arxitektura-va-quril.html?page=6>

<sup>107</sup> <https://fayllar.org/mavzu--nutq-uslublari-sozlashuv-uslubi.html>

2. Adabiy so‘zlashuv uslubi - xalq adabiy tilining keng tarqalgan turi bo‘lib, barcha sohalarda undan keng foydalilanadi. U adabiy til normalariga mos ishlangan , tartibga solingan til hisoblanadi. Kundalik o‘qish, ish, ta’lim-tarbiya joylarida shu uslubdan foydalilanadi. Bu uslub ham og‘zaki shaklda uchraydi.

So‘zlashuv uslubidagi so‘zlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ko‘plab o‘zgarishlar va o‘ziga yarasha farqlar yuzaga keladi. Buning sababini esa barcha tillar o‘z grammatikasi, leksikologiyasi va frazeologiyasiga egaligi bilan izohlash mumkin. Maqola davomida so‘zlashuv uslubi tarkibiga kiruvchi ibora (frazalar, ularni o‘rganuvchi fan va ingliz tilidagi iboralarning o‘zbek tiliga tarjima jarayoni haqida so‘z yuritiladi.

Ibora - biror tushuncha yoki gapning bir so‘z bilan ifodalanishi.<sup>108</sup> Tilshunoslikning iboralarni o‘rganuvchi bo‘limi frazeologiya deb nomlanadi.<sup>109</sup> Frazeologiya XX asrning 50-yillaridan mustaqil bo‘lim sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning tilshunoslikning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishi rus tilshunosi V.V.Vinogradov nomi bilan bog‘liq. O‘zbek frazeologiyasining shakllanishi Sh.Rahmatullayev, M.Husainov, Y.D.Pinxsasovlarning nomlari bilan bog‘liq. Quyida ingliz tilida mavjud iboralardan bir nechtasining o‘zbek tiliga tarjima qilinishida yuzaga keladigan grammatik va leksik farqlar tahlil qilinadi.

Look before you leap - Yetti o‘lchab bir kes. Ingliz tilidagi variantni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qiladigan bo‘lsak “Aylanishingdan oldin (atrofingga) qara” shaklida bo‘ladi. Lekin o‘zbekcha muqobilida ravish turkumidagi “before” so‘zi o‘rnida son so‘z turkumiga mansub “yetti”ni ko‘rishimiz mumkin.

On thin ice - Qil ustida. Bu tatjimadagi o‘zgarish kelib chiqadigan ma’noga deyarli ta’sir qilmaydi. “muz” va “qil” so‘zlarining ikkalasini ham birdek ishlatishimiz mumkin. Chunki muz istagan paytda yorilishi, qil esa uzilib ketishi mumkin.

The whole nine yards - Ipidan ignasigacha, to‘liq. Ingliz tilida butunlay degan ma’noni ifodalash uchun son + yer o‘chov birligi (yard)dan foydalilanigan bo‘lsa, o‘zbek tilida ot+ot kombinatsiyasidan foydalilanigan.

At the 11th Hour - So‘ngi pallada. Inglizlar 12soatlik formatdan foydalangani uchun “11-soat” birikmasidan so‘nggi pallaga yaqin qolganligini anglash mumkin.

Hit the books - kitobga sho‘ng‘ib ketmoq. Ingliz tilidagi “Urmoq” fe’li “Sho‘ng‘imoq”ga almashtirilgan

Light at the end of tunnel - kelajagi porloq. Bu iboradaning “tunnelning oxiri” qismini kelajakka tenglashtirish orqali muqobiliga almashtirish mumkin.

Once bitten, twice shy - bu iboraning ikkita tarjimasi mavjud: 1. “tili kuygan qatiqni ham puflab ichadi” va “ko‘r hassani bir marta yo‘qotadi”.

<sup>108</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ibora>

<sup>109</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologiya>

Forty winks - mizg‘ib olmoq. Tog‘ridan-tog‘ri “40 marta ko‘zni ochib-yumish” deyilsa bu tarjima mutlaqo boshqa ma’no anglatishi mumkin. O‘zbek tilida “Ko‘zni ochib yumish”ni “uxlash/mizg‘ish” fe’liga almashtirish o‘rinli bo‘ladi.

Against the clock - oyoqni qo‘liga olmoq. Shoshilish holati o‘zbekchada soat bilan emas, tana qismlari bo‘lgan oyoq va qo‘l bilan ifodalangan.

Have the blues - tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan. Tarjima jarayonida rang mevaga almashtirilgan va ot ortishi kuzatilgan.

Egg on your face - yuzi qizarmoq (uyalish) - faqat narsa va rang bilan bog‘liq almashuv kuzatilgan. Tana qismi (yuz) esa o‘zgarishsiz qolgan.

An arm and a leg - qimmat (ot bilan tuyu) - Ingliz tilida qo‘llangan tana qismlari o‘zbek tilida hayvonlar orqali ifodalanganini ko‘rshimiz mumkin.

Have your heart in your mouth - Tepa sochi tikka bo‘lmoq. Bitta ma’noni ifodalash uchun ikkala tilda har xil tana qismlaridan foydalanilgan.

A piece of cake - Hamirdan qil sug‘urgandek. Ingliz tilida “oson bitirish” ma’nosini ifodalash uchun 2ta otdan foydalanilgan bo‘lsa, O‘zbek tiliga tarjimada bunga qo‘shimcha tarzda sug‘urmoq fe’li qo‘shilgan.

Call a spade a spade - qilich kelsa ham rost gapir. Tarjimada ingliz tilidagi takroriy so‘zning o‘rniga yangi so‘zlardan foydalanilgan.

A bolt from the blue - tomdan tarasha tushgandek. Agar ko‘k rangni osmon deb oladigan bo‘lsak uni tom bilan tenglashtirib (ikkalasi ham yuqori qism), katta o‘zgarish bo‘lmagan deyishimiz mumkin.<sup>110</sup>

Miss the boat/ bus - og‘zidagi oshni oldirish. Ikkala ibora “imkoniyatni qo‘ldan boy berish” ma’nosiga teng bo‘lsa ham mavjud so‘zlar orasida o‘xshshlik toppish qiyin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turli tillardagi iboralarning boshqa tillarga tarjimasidagi farqlar mavjud grammatik tuzilish, leksik imkoniyatlar, tilning ichki imkoniyatlari, lug‘at boyligi va shuningdek an‘analar va turli qoidalar sababli yuzaga keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova - “O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati” - Toshkent-2016 b-98
2. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org) internet sayti
3. <https://uz.wikipedia.org> internet sayti
4. <https://leverageedu.com> internet sayti

<sup>110</sup> <https://leverageedu.com/blog/idioms-with-examples/>